



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- YIL YANVAR


NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024- yilning 1-fevral holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 1 389 tani tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 411 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarning 29,6 % i Navoiy shahrida joylashgan.

2024- yil 1-fevral holatiga qurilish korxonalari soni, birlikda

Hududlar kesimida




Yillar kesimida qurilish tashkilotlari soni



Shuningdek, Karmana tumanda 228 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 16,4 %), Qiziltepa tumanida – 209 ta (15,0 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar oyi uchun)

2024- yilning yanvar oyida, Navoiy viloyatida jami 316,0 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 146,0 % ni tashkil etdi.




Maʼlumot uchun: Qurilish faoliyati bu – oʼz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2024- yilning yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlaringin iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlari nisbatan ulushi 79,0 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 161,1 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlari nisbatan ulushi 15,5 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 102,8 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 5,5 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 125,7 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024- yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 70,6 % i yoki 254,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 80,9 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.

31,8 %
80,9
mlrd. so‘m

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 126,0 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 49,4 % ni tashkil etdi.

49,4 %
126,0
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 47,9 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.

18,8 %
47,9
mlrd. so‘m

2024- yilning yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Navoiy shahri (68,3 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (36,9 mlrd. so'm), Nurota tumani (36,2 mlrd. so'm) va Zarafshon shahri (30,3 mlrd. so'm) qayd etildi.


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
Navoiy viloyati	316,0	146,0	254,8
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	77,9	111,4	68,3
Zarafshon	36,9	142,4	30,3
G'ozg'on	0,6	106,8	0,5
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	3,4	128,3	3,1
Qiziltepa	52,0	120,5	36,9
Navbahor	16,9	119,1	14,0
Karmana	27,3	109,2	16,1
Nurota	37,7	350,0	36,2
Tomdi	37,3	3 211,7	26,5
Uchquduq	4,1	121,1	2,5
Xatirchi	21,9	109,8	20,4



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

**2024- yilning yanvar oyida bino va inshootlar
qurilishi asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha**

Jami bino va inshootlarni qurish – 249,8 mlrd. so'm.




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 31,1 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 13,8 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 10,6 % punktga kamayib, 49,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,2 % punktga kamayib, 19,9 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. so‘mda



G'ozg'on Shahar
100,0 %



Xatirchi tumani
88,4 %



Karmana tumani
85,1 %

**2024- yilning yanvar oyida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari**
Korxonalar turlari bo'yicha

Fuqarolik obyektlarini qurish- 48,8 mlrd. so'm.

12,6 %

Yirik qurilish
tashkilotlari

6,1
mlrd. so'm

87,4 %

Kichik korxona
va mikrofirmalar

42,7
mlrd. so'm

0,0 %

Norasmiy
sektor


0,0
mlrd. so'm

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 12,6 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 6,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 87,4 % (6,7 % punktga ko'paydi).

2024- yilning yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, m/lrd. soʻmda



Maʼlumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlaring eng yuqori ulushi Konimex tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlaring 36,5 % i), Uchquduq tumani (29,9 %) va Tomdi tumani (20,6 %) da kuzatildi.



36,5
Konimex tumani



29,9 %
Uchquduq tumani



20,6 %
Tomdi tumani

2024- yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 17,4 mlrd. so'm.

0,4
mlrd. so'm

**Yirik qurilish
tashkilotlari**

17,0
mlrd. so'm

**Kichik korxona va
mikrofirmalar**

2,5 %

97,5 %

Jamiga nisbatan ulushi

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % punktga ko'payib va 2,5 % ni tashkil etdi.

Qolgan 97,5 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,5 % punktga kamaydi.

2024- yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, m/lrd. so‘mda

Ma’lumot uchun:

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Uchquduq tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 12,4 % i), Konimex tumani (10,5 %) va Tomdi tumanida (9,5 %) kuzatildi.



12,4 %

Uchquduq tumani



10,5 %

Konimex tumani



9,5 %

Tomdi tuman

2024- yilning yanvar oyida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mIrd. so'mda*



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Jami hajmga nisbatan ulushi




2023-yilning mos davri bilan solishtirganda – **597,0 %**

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda – **117,2 %**

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda – **104,6 %**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 84,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 597,0 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 20,1 % punktga ko'payib, 26,7 % ni tashkil etdi.


Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Hududlar kesimida mlrd. so'mda




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxona va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024- yilning yanvar oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,6 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 14,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 117,2 % ni tashkil etgan holda 182,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Hududlar kesimida jamida ulishi % da




2024-yilning yanvar oyida qurilish ishlaring umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlaring ulushi 15,7 % ni yoki 49,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 104,6 % ni tashkil etdi. Shundan 38,9 mlrd. so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,7 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 9,0 mlrd. so'mni va 106,8 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 1,8 mlrd. so'mni va 113,2 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar oyidagi hajm, (*mlrd. so‘mda*)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 21,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 295,0 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,6 % va 93,4 % ni tashkil etdi.



Ma’lumot uchun:

Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush G’ozg’on shahrida (ushbu hududdagi umumiyligining 100 % i), Tomdi tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiyligining 96,4 % i) va Xatirchi tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiyligining 95,5 % i) qayd etildi.

Qurilish ishlari ***USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR***

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektni qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarini amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiylar qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. (79) 223-54-73